

XORIJIY TILLARNI (INGLIZ TILI MISOLIDA) O'RGANISHNING INNOVATSION USHLUBLARI

Nigora Khudoykulova

Students of Termez state university 3-course(Termez,Uzbekistan)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7147746>

Annatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishning bir qator interfaol va inavatsion usullari ko'rsatib o'tilgan. Yangicha metodlarni qo'llash usullari va innavatsion yondashuvlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili harflari. Indivisibiliti. Ingliz tilining tarixiy merosi. Amerikada ingliz tili

Ingliz tili bugungi jamiyatning tili. Uni bilmay turib yaxshi ishga joylasha olish, biror joyga sayoxatga jo'nab ketish usiz bimalol muloqatda bo'lish amri mahol. Bu til har bir mamlakatda alohida ehtiromga sazovor. Uni yaxshilab o'rganib olib siz o'zingiz uchun yangi texnologik olamni kashf etasiz va shu olamda juda ko'p qiziqarli malumotlarga ega bo'lasiz. Agar siz bu to'g'risida, yangi ingliz tili imlosining qoidalari, so'z turkumlari va boshqa yana ko'p narsalar to'g'risida ma'lumotlarni topasiz. Buyuk Britaniya bilan Amerika Qo'shma Shtatlari ushbu ikki mamlakatning o'rtasida hanuzgacha jamiyat uchun tushunarsiz bo'lib kelayotgan tik munosabatkarishakillangan. Ular orasidagi nizolar allaqachonlardan beri vujudga kelgan. Har bir mamlakat bu tilga o'zi tomonidan yangiliklar kiritishga harakat qiladi. Amerikaning yosh avlodga taniqli bo'lgan NoaUebster lug'atini o'rganishni taklif qilgan. Shunday payt ham bo'lganki bu tilda gapirish taqiqlangan. Bunday qonun 1969 yilda AQSH ningIllinoys shtatida chiqqan. Ularning rasmiy tili amerika tili deb tan olingan. Birinchi qarashda ularning orasida hech qanday farq ham yo'qday tuyuladi, ammo aslida ingliz tilining 24 shevasi mavjud. Bu turli asarlarning mualliflari bo'lgan yozuvchilar uchun misilsiz qiyinchiliklar tug'diradi. Mana, masalan mashxur qahramon GarriPotter to'g'risidagi kitob. Uni butun Amerika aholisi bimalol o'qiy olishi uchun ingliz tilidan Amerikacha ingliz tiluga tarjima qilishga to'g'ri kelgan. Ingliz tili harflari juda qiziqarli fakt aniqlangan! Luhatdaeng ko'p uchraydigan harf -'E', eng kam uchraydigani esa -'Q'. Amerikada ingliz tili bilan bevosita tanish bo'lganlar bir hil harflar turli talaffuz qilinishi mumkinligini juda yaxshi biladi. Hammasi gap va uning intonatsiyasiga bog'liq. Gapdagi bitta harf bir nechta xarf birikmalariga ega bo'lishi mumkin. Ingliz tili lug'atining interpretatsiyasida yana bir harf bo'lgan. Bu o'ziga hos so'zlarda uchrab turgan. Uning hozir bo'lishi so'zning ma'nosini zarracha o'zgartirmagan, shuning uchun ham bugungi kunda bu harf ingliz tilidagi so'zlardan chiqib ketgan bo'lsa kerak. Ingliz tilining so'zlari deyarli har bir tilda o'zining talaffuzi, imlo qoidalari

va jaranglashi bilan ajralib turadigan soʻzlari bor . Keling bir nechta misolni koʻrib chiqaylik: rhythms soʻzining tarjimasi ritmlar. Bu soʻzda birorta ham unli harf yoʻq va u ingliz tilida bu tarzda eng uzun soʻz deb hisoblanadi. Indivisibiliti – bu birlik. Eʼtibor bergan boʻlsangiz (i) unli harfi bu soʻzda 7 marta uchraydi. Bu soʻz ingliz tili uchun eng oddiy soʻzlardan bittasi. Keyingi soʻz -set. Birinchi qarashda mittigina boʻlib koʻringan bu soʻz feʼl uchun 7 xil maʼnoga ega. Bu hali hammasi emas! Ushbu soʻz talaffuzning juda koʻp variantlari mavjud . Bu soʻzning xilma-xilligini tarjima qilish qiyinlashtiradi, shuning uchun ham soʻzning talaffuzi bilan butun gapning maʼnosiga chuqur eʼtibor berish kerak. Ingliz tilida eng uzun soʻz hisoblanadigan soʻz ham mavjud bu PNEUMONOUltramicroscopicSilicovolcanocniosis bu soʻz ingliz tilida haqiqatdan ham ishlatishga ishonish qiyin. U kasallikni va uning nomlanishini anglatuvchi gap sifatida tarjima qilinadi. Xatto oddiy lugʻatda xam tasavvufli holatlar uchray turadi . Uzoq 1932 yildan 1940 yilga qadar dord- sharpa soʻz mavjud boʻlgan. Uning hech qanday maʼnosi boʻlmagan, chunki u anglashilmovchilik natijasida lugʻatga qoʻshilib qolgan . Ingliz tilidagi gaplar tez aytish oʻyini nafaqat boshqa tillarda ingliz tilida ham uning oʻziga yarasha oʻrni bor. Masalan ularning biri –Thesixthsicksheik’ssixthsheep’ssick. Harflarni yaxshilab oʻrganish uchun ingliz tilining barcha harflari hozir boʻlgan gap ham mavjud . “I am “ bilan “ I do” soʻz iboralarini deyarli har bir maktab oʻquvchisi biladi. Bu iboralar eng qisqa gaplar. Eng uzun gapga kelsak , uning tarkibida 13955 nafar soʻz bor. Ingliz tilining tarixiy merosi ingliz tilining dunyoga kelish tarixi oʻz ildizlari bilan Germaniya tomoniga qarab ketadi. Oʻrta asrlarda Germaniyaning qabilalari qachonlardandirrimliklar tomonidan oʻzlashtirib olingan Britaniya yeriga bostirib kirgan va muloqot davomida yangi tushunarsiz til til vujudga kelgan. Qadimiy ingliz tili hozirgisidan farq qiladi. Masalan: “ bride” soʻzining tarjimasi “kelin” qadimiy tilda esa bu yegulik tayyorlash jarayonini anglatgan. Oʻsha davrdan buyon koʻp soʻzlar oʻzlashtirilgan, soʻzlarning nafaqat jaranglashi-yu maʼnosi , imlo qoidalari ham oʻzgarib ketgan. Yana shuni maʼlumki 15 asrga qadar bu tild tinish belgilari umuman boʻlmagan. Bu til boymi yoki kambagʻalmi? Ingliz tilini sevuvchilarning koʻpchiligi bu til soddaligi va kundalik hayotiyiligi tufayli juda ommalashib ketganligi toʻgʻrisidagi nazaryani doim takidlaydilar . Biroq bu nazariya rad qilinishga loyiq . Oʻzingiz tassavurqilib koʻring aynan sbu tilda tahminan 800 mingdan ortiq soʻz bor . Nafaqat soʻzlar balki sinoʻnim qatorlari ham oʻzimizning talaffuz etilishi bilan juda boy. Masalan: “drunk” soʻzining tarjimasi “ mast” maʼnosini beradi, bu oddiy soʻzning 2241 sinonimi mavjud, bu juda katta son. Bu rekort hatto Ginnes rekordlar kitobiga ham kiritilgan. Bunaqasini boshqa birorta tilda ham topa olmasligingiz

aniq. Ingliz tili biror joyda turib qolgani yo'q, u doimo yangi so'zlar bilan yangilanib borayabdi. Bu ham tilni yaxshiroq o'rganib olish uchun juda zarur. Yuqorida keltirilgan faktlarga asoslanib shunday xulosa chiqarish munkinki bu til hali juda uzoq yillar(ehtimol asrlar) davomida insoniyat muloqot uchun foydalanib kelayotgan tillarning tojdori bo'lib qoladi. Uni o'rganish tinmay rivojlanishga tayyor barcha talabalar, o'quvchilar va oddiy odamlarning asosiy maqsadi bo'lib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologii", M., 1999.
4. www.tests-tests.com
5. www.psiholog1.ru
6. www.uzedu.uz
7. www.ziyonet.uz